

XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya Vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)


Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 34 600 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 33 422 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 96,6 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,8 %), Chust (7,9 %), Namangan (6,8 %) va Uychi (6,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2022 yilning 1 yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	34 600	100,0	33 422	100,0
Namangan sh.	11 345	32,8	10 810	32,4
Mingbuloq	1 584	4,6	1 543	4,6
Kosonsoy	2 135	6,2	2 086	6,2
Namangan t.	2 373	6,8	2 319	6,9
Norin	1 729	5,0	1 704	5,1
Pop	2 222	6,4	2 169	6,5
To'raqo'rg'on	2 171	6,3	2 125	6,4
Uychi	2 337	6,7	2 256	6,8
Uchqo'rg'on	2 121	6,1	2 044	6,1
Chortoq	2 060	6,0	1 977	5,9
Chust	2 739	7,9	2 649	7,9
Yangiqo'rg'on	1 784	5,2	1 740	5,2

Ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)



■ Namangan sh.	■ Mingbuloq	■ Kosonsoy	■ Namangan t.
■ Norin	■ Pop	■ To'raqo'rg'on	■ Uychi
■ Uchqo'rg'on	■ Chortoq	■ Chust	■ Yangiqo'rg'on

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (31,1 %)), sanoat (24,1 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,1%) hamda qurilish (7,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da

Jami	30 147	100,0	29 098	100,0
-------------	---------------	--------------	---------------	--------------

shu jumladan:


qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 794	9,3	2 710	9,3
sanoat	7 402	24,6	7 149	24,6
qurilish	2 468	8,2	2 396	8,2
savdo	10 721	35,6	10 303	35,4
tashish va saqlash	1 128	3,7	1 106	3,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 584	5,2	1 514	5,2
axborot va aloqa	487	1,6	474	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	612	2,0	596	2,1
boshqa turlari	2 951	9,8	2 850	9,8

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-xuquqiy shakli bo'yicha
2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Xususiy korxona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni (2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 1 214 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 212 taga yoki 1,2 marta oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 165 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 197 taga yoki 1,2 marta oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 343 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 166 taga yoki 32,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning xududlar kesimida soni (2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 21 697 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 355 taga yoki 118,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 016 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 080 taga yoki 117,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 412 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 778 taga yoki 116,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni
(2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 7 601 ta (jamidagi ulushi 36,2 %), Uychi 1 550 ta (7,4 %), Pop 1 405 ta va Chortoq 1 401 ta (6,7 % dan), Namangan 1 359 ta (6,5 %), Kosonsoy 1 338 ta (6,4 %), Uchqo'rg'on 1 155 ta (5,5 %), Chust 1 123 ta va Yangiqo'rg'on 1 116 ta (5,3 % dan) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 803 ta (3,8 %), To'raqo'rg'on 1 070 ta (5,0 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari
soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda



**Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)


	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>

Jami	34 600	100,0	33 422	100,0
-------------	---------------	--------------	---------------	--------------

shu jumladan:


qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 822	8,1	2 737	8,2
sanoat	7 403	21,4	7 150	21,4
qurilish	2 471	7,1	2 398	7,2
savdo	10 726	31,0	10 307	30,8
tashish va saqlash	1 129	3,3	1 107	3,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 587	4,6	1 517	4,5
axborot va aloqa	523	1,5	506	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	714	2,1	695	2,1
boshqa turlari	7 225	20,9	7 005	21

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)



Korxona va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 96,6 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,5 foiz oshgan.


**Korxona va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



2022 yil 1 yanvar holatiga 29 098 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6 335 ta, oilaviy korxonalar – 1 165 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 21 016 tani va 582 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi
sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha
taqsimlanishi, birlikda**


■ 01.01.2021 yil ■ 01.01.2022 yil



2021 yil yanvar-dekabr oylarida jami 6 687 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,4 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 867 ta), Chust (548 ta), To'raqo'rg'on (488 ta), Uychi (470 ta), Namangan (456 ta), Uchqo'rg'on (451 ta), Chortoq (439 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, Yangiqo'rg'on (376 ta), Mingbuloq (382 ta) va Kosonsoy (399 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda*
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish boʻyicha faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)




Axborot va aloqa sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumot, birlikda

■ 2021 y. ■ 2022 y.




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona
va tashkilotlarning soni, birlikda**
(2021 yilning yanvar-dekabr oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 37,6 %, sanoatda 25,9 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 10,3 %, qurilishda 5,7 % ni tashkil etadi.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**
(2021 yilning yanvar-dekabr oylarida)



**2021 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2022 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 28949 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021 yil mos davriga nisbatan 9,1 % ga oshgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 9 429 tasi (jami sub'ektlarning 32,6 %) Namangan shahriga, 2 314 tasi (8,0 %) Chust, 2 076 tasi (7,2 %) Namangan hamda 1 982 tasi (6,8 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 293 tasi (4,5 %) Mingbuloq, 1 443 tasi Norin, 1 449 tasi (5,0 % dan) Yangiqo'rg'on, 1 714 tasi (5,9 %) Chortoq, 1 762 tasi (6,1 %) Uchqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
hududlar bo'yicha soni**

	2021 yil 1 yanvar holatiga		2022 yil 1 yanvar holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	26 531	100,0	28 949	100,0
Namangan sh.	9 146	34,5	9 429	32,6
Mingbuloq	1 121	4,2	1 293	4,5
Kosonsoy	1 629	6,1	1 806	6,2
Namangan t.	1 941	7,3	2 076	7,2
Norin	1 224	4,6	1 443	5,0
Pop	1 615	6,1	1 827	6,3
To'raqo'rg'on	1 661	6,3	1 854	6,4
Uychi	1 777	6,7	1 982	6,8
Uchqo'rg'on	1 500	5,7	1 762	6,1
Chortoq	1 417	5,3	1 714	5,9
Chust	2 205	8,3	2 314	8,0
Yangiqo'rg'on	1 295	4,9	1 449	5,0


Faoliyat ko'rsatayotgan jami 28 949 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 10 281 tasi (35,5 %) - savdoda, 7 098 tasi (24,5 %) - sanoatda, 2 700 tasi (9,3 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 2 384 tasi (8,3 %) - qurilishda, 1 513 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 100 tasi (3,8 %) - tashish va saqlashda, 590 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 474 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 809 tasi (9,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)**



2021 yil yanvar-dekabr oylarida jami 6 469 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 foizga ko'p tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (1 749 ta), Chust (536 ta), To'raqo'rg'on (481 ta), Uychi (455 ta), Uchqo'rg'on (449 ta), Namangan (444 ta), Chortoq (430 ta) va Pop (405 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Yangiqo'rg'on (368 ta), Mingbuloq (378 ta), Kosonsoy (385 ta) va Norin (389 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik



tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (2 512 ta), sanoatda (1 731 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (685 ta), qurilishda (382 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (341 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, axborot va aloqada (131 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (111 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2022 yilning 1 yanvar holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,4 % ni (1 033 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 250 taga ko'paygan.


Hisobot davrida 3 860 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 263 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 6,8 %) qo'shib olish orqali tugatilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da (2021 yil yanvar-dekabr)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2022 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 284 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24 taga yoki 9,2 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 176 tasi qo'shma korxonalar, 108 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar 89 ta (31,3 %), Kosonsoy 28 ta (9,9), Pop 27 ta (9,5 %), Chortoq 26 ta (9,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq 7 ta (2,5), Uchqo'rg'on 10 ta (3,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning hududlar bo'yicha soni va ulushi**
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	284	100,0
Namangan sh.	89	31,3
Mingbuloq	7	2,5
Kosonsoy	28	9,8
Namangan t.	18	6,3
Norin	12	4,2
Pop	27	9,5
To'raqo'rg'on	14	4,9
Uychi	20	7,1
Uchqo'rg'on	10	3,5
Chortoq	26	9,2
Chust	20	7,0
Yangiqo'rg'on	13	4,6

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy
kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, % da**
(2022 yilning 1 yanvar holatiga)



2021 yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 36 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 taga kamaygan yoki 75,0 foizni tashkil qilgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikalari – 7 ta, Turkiya – 11 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta, Hindiston, Pokiston Islom Respublikasi, Janubiy Koreya – 3 tadan, Qirg'iziston, Turkmaniston 2 – tadan, Afg'oniston, Eron, Ukraina va Tojikiston Respublikalari – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 36 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar (16 ta), Chortoq (5 ta), Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Chust (3 tadan), Norin va Pop (2 tadan) Uychi va Yangiqo'rg'on (1 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Namangan va To'raqo'rg'on tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
hududlar kesimidagi soni va ulushi**
(2021 yil yanvar-dekabr)


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	36	100,0
Namangan sh.	16	44,4
Mingbuloq	-	-
Kosonsoy	3	8,3
Namangan t.	-	-
Norin	2	5,6
Pop	2	5,6
To‘raqo‘rg‘on	-	-
Uychi	1	2,8
Uchqo‘rg‘on	3	8,3
Chortoq	5	13,9
Chust	3	8,3
Yangiqo‘rg‘on	1	2,8

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 14 ta, savdoda 8 ta, qurilishda 6 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 5 ta va sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni, birlikda
(2021 yil yanvar-dekabr)



2021 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2022 yil 1 yanvar holatiga 1 214 tani tashkil etib, ulardan 1 165 tasi yoki 96,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 20,8 % ga oshganligini ta'kidlash mumkin.